Banklar faoliyatining samaradorligini oshirish va yuqori natijalarga erishishini ta'minlash banklarning filiallar tarmog'i faoliyatini natijalariga bevosita bog'liq hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, banklarning hududlarda joylashgan filial tarmoqlarini faoliyati natijalarini to'g'ri baholash va uni boshqarish bugungi kundagi dolzarb masalalardan hisoblanadi. Buning uchun mazkur yo'nalishda mahalliy va xorijlik olimlar asarlarini o'rganish va tadqiqotlar xulosalaridan foydalanish muhim nazariy ahamiyatga kasb etadi.

Jung Sakong tomonidan o'tkazilgan tadqiqot natijalariga asosan qora tanli jamoalardagi uy xo'jaliklari bank xizmatlaridan kamroq foydalanishining asosiy sabablaridan biri banklarning filiallari ular yashaydigan joydan uzoqroqda joylashganligini aniqlangan. Qora tanli jamoalarning bank xizmatlariga bo'lgan talabi asosan oq tanli jamoalarnikiga o'xshash bo'lsa-da, masofa uzoqlashgani sababli filialga oyiga o'rtacha 5,6 foiz kamroq mijozlar tashrif buyurgan. Tadqiqotda shuningdek, kam ta'minlangan jamoalarni ko'rib chiqilgan va kam ta'minlangan jamoalarning bank xizmatlariga talab kamroq bo'lgan va bu ularning bank filiallarida xizmatlardan kamroq foydalanishiga olib keldi[2].

Bank menejmentiga doir darsliklar va tadqiqot ishlarida banklarning filiallari faoliyatini baholash bo'yicha ko'rsatkichlarni hisoblash usullari atroflicha ko'rib chiqilgan. Ushbu ko'rsatkichlaridan birinchi navbatda moliyaviy ko'rsatkichlar tahlili hamda banklarning alohida tarkibiy bo'linmalari uchun baholash ko'rsatkichlarini tanlash va baholash masalasi, uning asosiy yo'nalishlarini tanlash uchun muvozanatli ko'rsatkichlar kartasini (The Balanced Scorecard) ishlab chiqilgan. Mazkur qoidaga asosan 4 ta asosiy ko'rsatichlar tizimidan foydalaniladi. Bankning biznes istiqbolli yo'nalishlari tanlanadi, moliyaviy samaradorlik ko'rsatkichlari, mijozlar bilan ishlash, texnologiyalar va biznes jarayonlarini optimallashtirishga, shuningdek, boshqa istiqbollar maqsadlariga erishish uchun xodimlarni malakali rag'batlantirishga qaratilgan.

Banklarning strategik menejmenti bo'yicha tadqiqotlarda kompaniya yoki umuman xolding darajasida ham, alohida tarkibiy bo'linmalar (alohida kompaniyalar) darajasida ham muvozanatli ko'rsatkichlar tizimini

1 Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 24 октябрдаги 4498-сон "Оилавий тадбиркорликни ривожлантириш давлат дастурлари доирасида амалга оширилаётган лойиҳаларни кредитлаш тартибини такомиллаштиришнинг қўшимча чора-тадбирлари тўғрисида"ги қарори / https://lex.uz/ru/docs/4569641

2 The Location of Bank Branches Matters / By Jung Sakong, Alexander K. Zentefis https://www.chicagofed.org/research/content-areas/mobility/policy-brief-bank-branch-location

ishlab chiqishga katta e'tibor beriladi. Yirik xolding yoki kompaniya ichidagi bo'ysunuvchi biznes bo'linmalari darajasiga qadar kaskadli maqsadlar uchun metodologiya o'tgan asrning 90-yillarida N.Norton va R.Kaplan tomonidan ishlab chiqilgan. Ushbu balanslangan ko'rsatkichlar kartasini boshqarish konsepsiyasi bo'lib, kaskadli maqsadlar va asosiy samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI) bo'yicha tavsiyalar ushbu maqsadlarni amalga oshirishda amaliy tajribaga asoslanadi[3].

Tadqiqotchilar Paradi va Zhuning tadqiqotlariga ko'ra bank filiallari faoliyati samaradorligini baholashning kompleks tizimini ishlab chiqish mamlakatlarning uzluksiz va barqaror iqtisodiy o'sishini ta'minlovchi bank tizimining asosiy tayanchlaridan biridir. Bank filiallari turli o'lchamlarda, turli hududlarda joylashgan bo'lib, turli mijozlarga turli xil xizmatlarni taklif etadi. Masalan, aholi zich joylashgan hududda joylashgan bank filialining moliyaviy operasiyalari hajmi shahar atrofidagi aholi kam yashaydigan hududda joylashganidan farq qiladi. Banklarning markaziy filiallari odatda kattaroq bo'lib, ko'proq xodimlar va mijozlarga ega. Yuqoridagilardan kelib chiqib, bank filiallari faoliyati samaradorligini an'anaviy usullar bilan baholash qiyin va murakkab vazifa hisoblanadi. Ko'p funksiyali bo'lganligi sababli bank filiallari uchun turli xil samaradorlik ko'rsatkichlari belgilanishi mumkin. Ularning tadqiqotida bank filiallari uchun hisoblanishi kerak bo'lgan uchta samaradorlik ko'rsatkichi keltirilgan.

Birinchisi, rentabellik bo'lib, bank filiali xodimlari, bankomatlari va kapitali kabi aktivlari yordamida qanchalik yaxshi foyda keltirishini baholash uchun foydalaniladi.

Ikkinchisi, bank filiali faoliyatining muhim jihatlaridan biri sifatida tan olingan operasion samaradorlik hisoblanadi. Operasion samaradorlik bank bank filialining daromad olish uchun omonatlarni qabul qilish, kreditlar berish va boshqalar kabi xizmatlarni ko'rsatishda qanchalik muvaffaqiyatli bo'lganligini o'lchaydi.

Uchinchi taklif qilingan samaradorlik tranzaksiya samaradorligi bo'lib, bu bank filiali o'z mijozlarini Internet-banking va telefon banking kabi masofaviy bank xizmatlaridan foydalanishni oqlashda qanchalik muvaffaqiyatli ekanligini ko'rsatadi. Shuningdek, tranzaksiya samaradorligi filiallarning zarur masofaviy bank infratuzilmasini qay darajada muvaffaqiyatli ta'minlaganligini ko'rsatadi[4].

Yuqoridagi taklif etilgan uchta samaradorlikni baholash ko'rsatkichlari filiallar faoliyatini baholashda muhim hisoblanadi. Umuman olganda filial tarmoqlarining faoliyati samaradorligini aniq ko'rsata oladi. Bundan tashqari, bank filiallarida biznes reja ko'rsatkichlarini bajarilishi va aktivlar sifatini oshirish borasidagi faoliyati bo'yicha ko'rsatkichlarni baholash mazkur yo'nalishda filiallar faoliyatini natijadorligini aniqrovq ko'rsatgan bo'lar edi.

Boshqa bir tadqiqotchilar Xashem Omrani va Meysam Shemsi tadqiqotlarida operasion muhitni tahlil qilish (DEA-Data Envelopment Analysis - Analiz sredi funksionirovaniya) asosida amaliy ma'lumotlardan foydalangan holda faqat bitta turdagi samaradorlikni o'lchash orqali qaror bank bo'linmalarining ish faoliyatini baholaygan. Ularning fikricha, banklar tarmoqlarning kengligi tufayli, faqat bitta turdagi samaradorlikni hisoblash bank bo'linmalari samarali yoki samarasiz deb tasdiqlay olmasligini tasdiqlashadi. Banklar filial tarmoqlarini baholashda noaniq ma'lumotlar mavjud bo'lganda bank filiallari uchun rentabellik, operasion va tranzaksiyani o'z ichiga olgan uch turdagi samaradorlikni hisoblash bo'yicha DEA (Data Envelopment Analysis) modelini ishlab chiqishgan. Tadqiqotchilar tomonidan taklif etilgan modelning to'g'riligini tasdiqlash uchun Eronning G'arbiy Ozarbayjonda joylashgan 45 ta qishloq xo'jaligi banki filiallarining haqiqiy holatiga baho berilgan. Natijalar taklif qilingan model turli ssenariylarda aniq natijalar berishi mumkinligini ko'rsatib, Faoliyati samarali va samarasiz bank filiallarini aniqlash uchun har bir samaradorlik jihati bo'yicha qiyosiy tahlillar amalga oshirilgan[5].

Rossiyalik tadqiqotchi D.Aslanov va boshqalar tomonidan tijorat banki bo'limlari samaradorligini baholash bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlarga ko'ra banklarning filiallari faoliyatini 10 ta asosiy ko'rsatkichlar tizimidan foydalangan holda bank bo'limlarining holatiga baho berilgan. Baholash natijalari bo'yicha filiallarga "yaxshi", "qoniqarli" va "shubhali" reyting berilib, umumiy samaradorlik ko'rsatkichlari aniqlangan[6].

## TADQIQOT VA METODOLOGIYA

Mazkur maqolada ma'lumotlarni guruhlash, ko'rsatkichlarning qiyosiy va tarkibiy tahlili, induksiya va deduksiya, analiz va sintez va boshqa ilmiy tahlil usullaridan keng foydalanilgan. Shuningdek, mahalliy va xorijlik iqtisodchi olimlar va tadqiqotchilarning tadqiqotlari xulosalaridan, erishilgan ilmiy natijalaridan foydalanilgan va banklarning amaliy ma'lumotlari asosida taqqoslama tahlillar amalga oshirilgan.

3 Каплан Р., Нортон Д. Сбалансированная система показателей. – М.: Олимп-Бизнес, 2003.

4 Paradi, J.C. and Zhu, H. (2013) A Survey on Bank Branch Efficiency and Performance Research with Data Envelopment Analysis. Omega, 41, 61-79.http://dx.doi.org/10.1016/j.omega.2011.08.010

5 Hashem Omrani, Meisam Shamsi, Ali Emrouznejad, Tamara Teplova / A robust DEA model under discrete scenarios for assessing bank branches / https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S0957417423001951

6 Асланов Д.И., Смолина Е.П., Антонов Е.Т., Голубова М.И. Совершенствование методики оценки эффективности отделения коммерческого банка /фундаментальные исследования №1, 2023/ УДК 336.71 Стр.7-14. / https://s.fundamental-research.ru/pdf/2023/1/43413.pdf

## TAHLIL VA NATIJALAR

Bank ishi va bank faoliyati dunyodagi murakkab sohalardan bo'lishi bilan birga, har qanday davlat iqtisodiyotida muhim ahamiyatga ega. Banklar iqtisodiyotning sanoat, qishloq xo'jaligi, aholiga xizmat ko'rsatish va boshqa shu kabi tarmoqlarining asosiy moliyalashtirish manbai bo'lib xizmat qiladi. Tijorat banklari mustaqil tijorat tashkiloti sifatida moliyaviy resurslarni optimal taqsimlash va mijozlarga turli bank xizmatlarini ko'rsatish orqali daromad va foyda oladi. Bank mijozlaridan uzoq muddatga depozitlarni jalb qilish va uni moliyaviy resurslarga ehtiyoji bo'lgan sub'ektlarga tavakkalichilik bilan taqdim etadi. Ushbu jarayonlar banklar filiallari orqali amalga oshirilish zaruratini keltirib chiqaradi, ya'ni bankning xizmatlari va mahsulotlari filial tarmoqlari orqali mijozlarga taqdim etiladi.

1-jadval. Bank filiallari samaradorligini baholash bo'yicha adabiyotlar sharhi[7].

| Mualliflar | O'rganilgan filiallar soni | O'rganilgan davri | O'rganilgan joyi | O'zgaruvchilar | Natijalar |
|---|---|---|---|---|---|
| **Portela va Tanassoulis (2007)** | 57 | 2005-yil | Portugaliya | Xodimlar | Tranzaksiyalar soni va mijozlar sonining ko'payishi;<br>Joriy hisobvaraqlar qoldig'i o'sishi;<br>Kreditlar va depozitlar o'sishi; |
| **Donatos va Giokas (2008)** | 240 | 2002-yil | Gresiya | Xodimlar ish xarajatlari va boshqa operasion xarajatlar | Depozitga a operasiyalari; ;<br>Kreditga operasiyalari;<br>Boshqa operasiyalar. |
| **Chaffai va Diesch (2009)** | 1618 | 2004-yil | Fransiya | Moliyaviy xarajatlar (depozitlar va qarzlar bo'yicha);<br>Ish haqi xarajatlari;<br>Boshqa operasion xarajatlar. | Bank foydasining uchta o'lchovi yalpi, operativ va sof foyda ko'rsatkichi |
| **Chang va boshqalar. (2011)** | 151 | 2005-yil | Tayvan | Xodimlar ish haqi xarajatlari;<br>Foiz to'lovlari xarajatlari;<br>Boshqa tasodifiy xarajatlar. | Sof foyda Operasion foyda Foiz daromadlari Jami kreditlar Jami depozitlar |
| **Yang va Liu (2012)** | 55 | 2008-yil | Tayvan | Xodimlar ish haqi xarajatlari;<br>Operasion xarajatlar;<br>Foiz xarajatlari. | Foizli daromadlar;<br>To'lovlardan daromadlar. |
| **Hayot va boshqalar. (2017)** | 62 | 2014–2015-yillar | Indoneziya | Operasion bo'lmagan xarajatlari;<br>Kreditlar yo'qotishlar uchun zaxiralar. | Jami xarajatlar<br>Filial faoliyat daromadlari. |
| **Niaki va Shalmani (2016)** | 45 | 2015 | Eron | Xodimlar soni;<br>Moliyaviy resurslar hajmi. | Depozit qoldiqlari<br>Kredit qoldiqlari |

Yuqoridagi ko'rib chiqilgan tadqiqotlardan olingan natijalarni umumlashtirgan holda quyidagi xulosalarni shakllantirish mumkin:

1. Bank filiallari faoliyati samaradorligini baholashda bank xizmatlari ko'rsatish hajmi asosida baholash uslubi ustunlik qilgan. Sababi filiallar faoliyatini o'rganish ob'ekti moliyaviy tizim bo'lsada, asosiy natijalarga xizmatlar ko'rsatish orqali erishish mumkin.

2. Filiallar faoliyatini samaradorligi moliyaviy natijalar asosida baholash yondashuvining boshqaruv va tartibga solish uchun foydalanish mumkin;

3. Bank filiallari faoliyatni baholashda asosiy o'zgaruvchilar (xarajatlar, ish haqi xarajatlari, operasion xarajatlar, bank xizmatlari narxlari) samaradorlikka ta'siri yuqori ekanligi aniqlangan;

4. Filiallar faoliyatini baholash bilan bog'liq muammolarning ayrim umumiyligi va farqli jihatlari aniqlangan.

7 Тадқиқот натижалари асосида муаллиф томонидан тузилди.

Moliyaviy tahlil boshqaruv qarorlarining ajralmas qismidir. Ularni qabul qilishdan oldin, qabul qilish paytida va keyin qo‘llaniladi. Moliyaviy tahlil ko‘rsatkichlari moliyaviy qarorlar qabul qilish va ularning samaradorligini baholash uchun zarur ma’lumotlarni taqdim etadi. Shuning uchun ham bankda moliyaviy tahlil qabul qilinadigan boshqaruv qarorlarining sifati va samaradorligini ta’minlashning bosqichi, operasiyasi va asosiy vositalaridan biri hisoblanadi.

Banklar faoliyatini rivojlantirishda strategik rejalashtirish va boshqaruvni tahlilsiz amalga oshirishning imkoni mavjud emas. Bank faoliyati bilan bog‘liq masalalarni samarali hal etish hamda bankning barqaror va samarali faoliyat yuritishiga erishish maqsadida filialllar faoliyatini har tomonlama tahlil qilish zarur. Bank xizmatlari bozoridagi raqobat va banklar faoliyatini tartibga solish borasida cheklovlar kuchaygan sharoitda filiallar faoliyatining samaradorligi tahlili muhim ahamiyat kasb etadi.




1-rasm. Bank filiallari samaradorligini baholash manbalari[8].

Buxgalteriya balansi va daromadlar to‘g‘risidagi hisobot o‘rtasidagi munosabat shundan dalolat beradiki, buxgalteriya balansi aktivlari operasion daromadlarning asosiy qismini, passivlar esa bank faoliyati samaradorligini baholashga asoslangan operasion xarajatlarni tashkil qiladi. Filiallar faoliyati tahlilida axborot manbai sifatida filialning moliyaviy natijalarini (shu jumladan daromadlar va xarajatlarni) batafsilroq tahlil qilish uchun pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobot ma’lumotlari, shuningdek, filialning analitik va sintetik buxgalteriya hisobi ma’lumotlaridan foydalaniladi.

Bankning moliyaviy holatini batafsilroq baholash uchun nafaqat bankning balansi va hisobot ma’lumotlarini tahlil qilish, balki bozor tadqiqotlarini o‘tkazish, raqobatchilarni baholash, qarz oluvchilarning moliyaviy holatini tahlil qilish lozim bo‘ladi. Bundan tashqari, moliyaviy tahlil imkoniyatlari har xil turdagi aloqaning iqtisodiy, statistik va matematik modellarini qurishga, shuningdek, bank faoliyati ko‘rsatkichlarining tuzilishi va dinamikasini umumlashtiruvchi tavsifga asoslanganda kengroq bo‘ladi. Bankning balans va daromadlar to‘g‘risidagi hisobotning har bir bo‘limi uchun quyidagilar hisoblanishi kerak:

- tahlil qilinayotgan sohalar guruhining umumiy hajmida alohida mahsulotlar ulushini tavsiflovchi nisbiy qiymatlar;
- dinamik ko‘rsatkichlari (mutlaq o‘sish, o‘sish sur’atlari, o‘sish sur’atlari);
- har bir yo‘nalish bo‘yicha mablag‘lar hajmi o‘zgarishining yo‘nalishlar guruhi hajmining umumiy o‘zgarishiga ta’sirini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar tahlil qilinadi.

Bank filiallarining moliyaviy holatini baholashda moliyaviy tahlilning quyidagi 2-rasmda keltirilgan usullaridan keng foydalangan holda amalga oshiriladi.

8 Тадқиқот натижалари асосида муаллиф томонидан тузилди.




2-rasm. Bank filiallari samaradorligini baholash manbalari[9].

Tijorat banklari filiallarining moliyaviy natijalarini baholash moliyaviy tahlilning quyidagi usullaridan foydalangan holda daromadlar va xarajatlarni tahlil qilishga asoslanadi:

1. gorizontal (vaqtga bog'liq) tahlil – filial daromadlari va xarajatlarining yo'nalish kesimida o'tgan davr bilan taqqoslash;

2. vertikal (tarkibiy) tahlil - har bir omilning yaxlit natijaga ta'sirini aniqlagan holda filial daromadlari va xarajatlarining alohida turlari, guruhlari yoki sohalari tarkibi baholanadi;

3. trend tahlili - tijorat banki filiali daromadlari yoki xarajatlarining har bir moddasi oldingi davrlar jami bilan solishtirish va tendensiyani aniqlash, ya'ni tanlangan ko'rsatkich dinamikasidagi asosiy tendensiya asosida amalga oshiriladi;

4. koeffisientlar tahlil qilish - ko'rsatkichlar o'rtasidagi munosabatlarni aniqlash uchun aktivlar, majburiyatlar, daromadlar va xarajatlarning alohida pozisiyalari yoki turli xil hisobot shakllari sohalari asosida baholash amalga oshiriladi.

Mahalliy tadqiqotchilardan Sh.Xannaevning amalga oshirilgan tahlillari natijalari bo'yicha erishilgan xulosalari hamda banklar faoliyati samaradorligini oshirish borasidagi tavsiyalari quyidagilarda o'z aksini topgan:

- davlat ulushidagi banklar o'z xarajatlarini eng samarasiz boshqarishmoqda va bu bank-moliya bozorida davlat va xususiy sektor moliyaviy resurslaridan optimal darajada foydalanishni cheklamoqda. Shuning uchun bank-moliya bozorini sog'lomlashtirish maqsadida, davlat ulushi yuz foiz bo'lgan TIF Milliy banki, Asakabank va Xalq bankini bosqichma-bosqich xususiylashtirish maqsadga muvofiq;

- TIF Milliy banki mamlakatdagi eng yirik bank bo'lib, uning negizida bir nechta ixtisoslashtirilgan tijorat banklarini tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Buning uchun, birinchi navbatda, bankning muammoli kreditlari bilan bog'liq masalalarni hal etish lozim. Xususan, ushbu muammolarni hal etishning variantlari sifatida TIF Milliy banki negizida yangi tashkil etilayotgan yoki qayta tuzilayotgan tijorat banklari o'rtasida taqsimlash yohud ularni likvidasiya qilish bo'lishi mumkin;

- hukumat moliyaviy bozorda samaradorlikni oshirish uchun davlat banklaridagi ulushini strategik investorlarga berishi maqsadga muvofiq;

- turli mulkchilik shakliga ega banklarda xarajatlar bo'yicha o'rtacha samaradorlik 70 foizga bormasligi, ko'plab banklar oldida kamida 30 foizga ushbu samaradorlikni oshirish imkoniyati mavjud ekanligini ko'rsatmoqda. Shundan kelib chiqqan holda, bank boshqaruvchilarini samaradorlik ko'rsatkichlariga ko'ra rag'batlantirish tizimini yo'lga qo'yish lozim. Bunda turli bo'g'indagi xodimlar uchun bank aksiyasini opsion tariqasida taqdim etilishi samarali ishlashi mumkin;

- ma'lum bir hudud doirasida faoliyat yuritadigan bank yuqori samaradorlikka ega bo'lganligi uchun ma'lum bir hududda yoki erkin iqtisodiy hududda faoliyat yuritadigan hududiy banklarni tashkil etishda imtiyozlar taqdim etish;

- aksariyat xususiy banklar eng yuqori samaradorlikka ega bo'lgani uchun xususiy banklarni tashkil etishni osonlashtirish[10].

9 Тадқиқот натижалари асосида муаллиф томонидан тузилди.

10 Ханнаев Ш. Турли мулкчилик шаклидаги банклар фаолияти самарадорлиги таҳлили "Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар" илмий электрон журнали. № 1, январь-февраль, 2019 йил / 1/2019 (№ 00039) / Б.1-15. https://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/22_Khannayev.pdf.

Tadqiqotchi tomonidan yuqorida banklar faoliyatining samaradorligini oshirish va bank tizimida raqobatni rivojlantirish nuqtai nazaridan muhim tavsiyalar keltirib oʻtilgan. Ammo, banklarning filial va boʻlimlari faoliyatining samaradorligini oshirish borasida tavsiyalar aks etmagan.

Tadqiqotchi E.R.Serovning tadqiqotlarida bank filiallar tarmogʻi faoliyati natijalarini baholashda muhim koʻrsatkichlar tizimi tavsiya etib oʻtilgan. Xususan, bir xodimga toʻgʻri keluvchi daromad, foizsiz daromadlarning jami daromadlardagi ulushi, CIR (Cost/Income Ratio) operasion samaradorlik, 1 m2 maydon uchun daromad, sof foiz marjasi kabi koʻrsatkichlar boʻyicha erishilgan natijalar asosida filiallar faoliyatiga baho berilgan. Shu bilan mazkur tadqiqotchi tomonidan aynan bank tizimida filial tarmoqlari faoliyatini baholash borasida quyidagi tavsiyalari e'tiborga molik hisoblanadi: [11]

- filiallar faoliyatini baholashda foydalaniladigan jami baholash koʻrsatkichlari soni ortiqcha boʻlmasligi kerak (optimal - 10 dan oshmasligi kerak, ya'ni har bir biznes yoʻnalishi uchun koʻpi bilan 2-3 tadan);
- bir xil biznes yoʻnalilishdagi koʻrsatkichlar baholanayotgan omillar va qoʻllash maqsadi (ma'nosi) jihatidan bir-birini takrorlamasligi lozim;
- bank mahsulotlarini sotish rejalari va boshqa moliyaviy koʻrsatkichlarning bajarilishini hisoblashda valyutani qayta baholashning ta'sirini istisno qilish maqsadga muvofiqdir. Texnik jihatdan tuzatish haqiqiy hajmlarni/daromadlarni rejalashtirishda ilgari qoʻllanilgan stavkalarga qayta hisoblash yoʻli bilan amalga oshirish mumkin;
- hisob-kitoblarda universal, qoida tariqasida, har 1 nafar xodimga yoki 1 m2 egallagan maydonga nisbatan nisbiy "oʻziga xos koʻrsatkichlar"dan foydalanish maqsadga muvofiq boʻlib, bu turli oʻlchamdagi va ixtisoslikdagi boʻlinmalarni ob'ektiv taqqoslash;
- filiallari reytingiga qoʻshimcha ravishda bir hil guruhlardagi (masalan, yirik universal, kichik chakana savdo va boshqalar) ofislarni, shuningdek, ushbu guruhlar doirasidagi oʻrtacha reytinglar bilan qoʻshimcha ravishda solishtirish;
- turli sabablarga koʻra baholash tizimi koʻrsatkichlarining toʻliq roʻyxatini hisoblash mumkin boʻlmagan boʻlinmalar (yangi filiallar ochilishi, biznes-rejalarning ishlab chiqilmaganligi, statistik hisobot va boshqalar), umumiy reytingdan vaqtincha chiqarib tashlanishi lozim;
- baholanayotgan filiallar rahbarlari va xodimlarini ragʻbatlantirish maqsadida qoʻllaniladigan koeffisientlar dinamikasini tahlil qilish, natijalariga ta'sir qilgan sabablar boʻyicha apellyasiya va asoslantirilgan qarorni shakllantirish mexanizmlari ta'minlanishi zarur.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Banklararo raqobat sharoitida bank filiallarining samaradorlik koʻrsatkichlarini baholashning nazariy-tahliliy jihatlarini takomillashtirishda xorij tajribasidan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Bank filiallari faoliyatini samaradorligini baholashda quyidagi quyidagi koʻrsatkichlar asosida baholash tavsiya etiladi:

- filiallar faoliyatini baholashda foydalaniladigan jami baholash koʻrsatkichlari soni ortiqcha boʻlmasligi kerak (optimal - 10 dan oshmasligi kerak, ya'ni har bir biznes yoʻnalishi uchun koʻpi bilan 5 gacha boʻlishi);
- hisob-kitoblar asosida 1 xodimga toʻgʻri keladigan daromad va foyda koʻrsatkichlariga reja belgilash orqali bir xodimning samaradorligini oshirish orqali filiallar samaradorligini oshirish;
- bank filiallari faoliyatini baholashda filiallar joylashuvi, hududning iqtisodiy potensiali va boshqa qator omillarni hisobga olgan holda tahlil qilish yanada samara berish mumkin boʻladi;
- bankning strategik rejalaridan kelib chiqib, qaysi bank mahsulotlarini sotish va yuqori samaradorlikni ta'minlash boʻyicha maqsadli koʻrsatkichlarni eng muhim samaradorlik koʻrsatkichlariga bogʻlagan holda filiallarda sotuvni tashkil etish yakuniy moliyaviy natijalarni oshirishga zaminya yaratadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 24 октябрдаги 4498-сон "Оилавий тадбиркорликни ривожлантириш давлат дастурлари доирасида амалга оширилаётган лойиҳаларни кредитлаш тартибини такомиллаштиришнинг қўшимча чора-тадбирлари тўғрисида"ги қарори / https://lex.uz/ru/docs/4569641
2. The Location of Bank Branches Matters / By Jung Sakong, Alexander K. Zentefis https://www.chicagofed.org/research/content-areas/mobility/policy-brief-bank-branch-location
3. Paradi, J.C. and Zhu, H. (2013) A Survey on Bank Branch Efficiency and Performance Research with Data Envelopment Analysis. Omega, 41, 61-79.http://dx.doi.org/10.1016/j.omega.2011.08.010
4. Hashem Omrani, Meisam Shamsi, Ali Emrouznejad, Tamara Teplova / A robust DEA model under discrete scenarios for assessing bank branches / https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S0957417423001951 https://doi.org/10.1016/j.eswa.2023.119694
5. Portela, M.C.A.S. & Thanassoulis, E. (2007). Comparative Efficiency Analysis of Portuguese Bank Branches. European Journal of Operational Research, 177, (2), 1275-1288. https://doi.org/10.1016/j.ejor.2006.01.007

11 Серов Е. Р. Оценка эффективности филиальной сети кредитных организаций / Проблемы современной экономики, N 1 (61), 2017 / http://www.m-economy.ru/art.php?nArtId=5993

6. Donatos G. S. & Giokas, D. I. (2008). Relative Efficiency in the Branch Network of a Greek bank: A Quantitative Analysis. European Research Studies, 6(3), 53-72.
7. Chaffai, M. E. & Dietsch, M. (2009). The Effect of the Environment on Profit Efficiency of Bank Branches. In M. Balling, E. Gnan, F. Lierman and J. Schoder. Productivity in the Financial Services Sector. Luxemburg: Larcier.
8. Chang, K., Lin, C., Cao, Y. & Lu, C. (2011). Evaluating Branch Efficiency of a Taiwanese Bank Using Data Envelopment Analysis with an Undesirable Factor. African Journal of Business Management 5(8), 3220-3228. https://doi.org/10.1108/09564239810238820
9. Yang, Z. (2009). Bank Branch Operating efficiency: A DEA Approach. In Proceedings of the International MultiConference of Engineers and Computer Scientists, Vol. 2. Hong Kong. Retrieved 06 may 2019 from: http://www.iaeng.org/publication/IMECS2009
10. Hayat, D., Anggraeni, L. & Bakhtiar, T. (2017). Efficiency Analysis of Bank Branches: Production and Profitability Approaches (Case Study of Bank EFG Syariah). International Journal of Science and Research (IJSR), 6(2), 2078-2082.
11. Niaki, S. J.H. A & Shalmani, H. (2016). Using Stochastic Frontier Function to Measure Branch Efficiency of Saman Bank in Iran. International Journal off Humanities and Cultural Studies, Special Issue, 659-673.
12. Асланов Д.И., Смолина Е.П., Антонов Е.Т., Голубова М.И. Совершенствование методики оценки эффективности отделения коммерческого банка /фундаментальные исследования №1, 2023/ УДК 336.71 Стр.7-14. / https://s.fundamental-research.ru/pdf/2023/1/43413.pdf
13. Каплан Р., Нортон Д. Сбалансированная система показателей. — М.: Олимп-Бизнес, 2003.
14. Ханнаев Ш. Турли мулкчилик шаклидаги банклар фаолияти самарадорлиги таҳлили “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. № 1, январь-февраль, 2019 йил / 1/2019 (№ 00039) / Б.1-15. https://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/22_Khannayev.pdf.
15. Серов Е. Р. Оценка эффективности филиальной сети кредитных организаций / Проблемы современной экономики, N 1 (61), 2017 / http://www.m-economy.ru/art.php?nArtId=5993

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Shahzod Avilqulov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2024. № 9**

© Materiallar ko‘chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.